



UDK: 41.12.25

Iroda AXMEDOVA,

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mita bo'lim boshlig'i. Andijon davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi, PhD

E-mail: axmedovaaa0577@gmail.com, ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-8732-0825>

Farg'ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov taqrizi asosida

“YOSHLARNI RADIKALIZMDAN HIMOYA QILISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARNING O'RNI”

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni radikalizmdan himoya qilishda ijtimoiy tarmoqlarning ikki tomonlama tabiati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinadi. Ijtimoiy tarmoq faqat axborot uzatuvchi vosita emas, balki shaxsning o'zligini, qadriyatlarini, ijtimoiy aloqalarini va voqelik haqidagi tasavvurini shakllantiruvchi raqamli ijtimoiylashuv institutidir. Tadqiqotda radikalashuvning adolatsizlik hissi, identitet inqirozi, ijtimoiy begonalashuv, guruhiiy qutblanish, algoritmik tavsiyalar va manipulyativ narrativlar bilan bog'liq mexanizmlari ochib beriladi. AQSh, Yevropa, Rossiya, Arab dunyosi, Turkiya, O'zbekiston hamda Osiyo ilmiy maktablari qarashlari qiyosiy o'rganiladi. Tahlillar natijasida yoshlarni himoya qilish uchun “MA'NO” modeli ishlab chiqildi. Model media savodxonlik, adolat va ijtimoiy ishonch, narrativ va normativ qadriyatlar, onlayn-offlayn hamkorlik tamoyillariga asoslanadi. Asosiy xulosa shuki, radikal kontentni taqiqlashning o'zi yetarli emas. Yoshga ishonchli ma'no, sog'lom mansublik, ochiq muloqot va foydali ijtimoiy ishtirok taklif etilmasa, bo'shliqni destruktiv guruhlar egallashi mumkin.

Kalit so'zlar: Yoshlar, radikalizm, radikalashuv, ijtimoiy tarmoq, raqamli ijtimoiylashuv, algoritmik muhit, identitet, ijtimoiy begonalashuv, media savodxonlik, qarshi narrativ, ijtimoiy ishonch.

«РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ В ЗАЩИТЕ МОЛОДЕЖИ ОТ РАДИКАЛИЗМА»

Аннотация

В статье с социально-философской точки зрения анализируется двойственная природа социальных сетей в защите молодежи от радикализма. Социальная сеть рассматривается не только как канал передачи информации, но и как институт цифровой социализации, формирующий идентичность, ценности, социальные связи и картину мира личности. Раскрываются механизмы радикализации, связанные с чувством несправедливости, кризисом идентичности, отчуждением, групповой поляризацией, алгоритмическими рекомендациями и манипулятивными нарративами. Предлагается авторская модель «МА'НО», основанная на медиаграмотности, справедливости и социальном доверии, конструктивных нарративах и взаимодействии онлайн- и офлайн-институтов.

Ключевые слова: Молодежь, радикализм, радикализация, социальные сети, цифровая социализация, идентичность, медиаграмотность, социальное доверие, контрнарратив.

“THE ROLE OF SOCIAL MEDIA IN PROTECTING YOUTH FROM RADICALISM”

Annotation

The article offers a social-philosophical analysis of the dual role of social media in protecting young people from radicalism. Social media are treated not merely as channels of information but as institutions of digital socialization that shape identity, values, social ties and perceptions of reality. The study explains how perceived injustice, identity crisis, social alienation, group polarization, algorithmic recommendations and manipulative narratives interact in radicalization. It compares approaches developed in the United States, Europe, Russia, the Arab world, Türkiye, Uzbekistan and other Asian scholarly contexts. The author proposes the ‘MA'NO’ model based on media literacy, justice and social trust, constructive narratives and online-offline cooperation.

Key words: Youth, radicalism, radicalization, social media, digital socialization, identity, media literacy, social trust, counter-narrative.

Kirish. XXI asrda yoshlarning ijtimoiylashuvi ikki makonda kechmoqda. Birinchi makon oila, mahalla, ta'lim muassasasi, mehnat jamoasi va tengdoshlar muhitidan iborat. Ikkinchi makon esa ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, videoplatformalar, forumlar va onlayn o'yinlar orqali shakllangan raqamli muhitdir. Bu ikki makon bir-biridan ajralgan emas. Yoshlar internetda ko'rgan g'oyani real hayotga olib chiqishga harakat qiladi. Real hayotdagi ranjish, yolg'izlik yoki adolatsizlik hissini esa internetdagi guruhlar orqali izohlaydi. Shu sababli radikalashuvni faqat onlayn yoki faqat offlayn hodisa sifatida tushuntirish ilmiy jihatdan yetarli emas. Raqamli platforma foydalanuvchiga shunchaki xabar bermaydi. U nimani ko'rish, nimadan g'azablanish, kimga ishonish va qaysi guruhga mansub bo'lish haqida yashirin yo'nalishlar beradi. Algoritmilar foydalanuvchining avvalgi tanlovlarini

qayta taklif qiladi. Natijada shaxs o'z qarashiga o'xshash fikrlar ko'p bo'lgan axborot doirasida qolib ketishi mumkin. Bunday muhitda murakkab ijtimoiy muammo oddiy dushman obrazi orqali izohlanadi.

UNESCO tomonidan amalga oshirilgan xalqaro tadqiqotlar ijtimoiy tarmoq bilan zo'ravon radikalashuv o'rtasidagi bog'liqlikni vahima yoki taxmin asosida emas, dalillar asosida baholash zarurligini ta'kidlaydi. Tadqiqotchilar onlayn kontentning ta'siri mavjudligini inkor etmaydi, lekin bitta platforma yoki bitta video odamni avtomatik tarzda ekstremistga aylantiradi degan soddalashtirilgan xulosani ham qo'llab-quvvatlamaydi. Ularning mazmunan muhim talabi shunday: “siyosat taxmin va vahimaga emas, dalilga asoslanishi kerak”.[1]

Materiallar va metodlar. Radikallashuv ko'p omilli jarayondir. U shaxsning bir kunda o'zgarib qolishi emas. Bu jarayonda shaxsiy ranjish, guruhiiy xotira, ijtimoiy tengsizlik, siyosiy norozilik, diniy yoki milliy talqin, do'stlik tarmoqlari va qulay axborot muhiti bir-biriga qo'shiladi. Muhammad Hofiz va Kreyton Mallins radikallashuvni to'rtta asosiy unsur - norozilik va ranjishlar, shaxslararo tarmoqlar, mafkura hamda qo'llab-quvvatlovchi muhitning birikishi sifatida tushuntiradi. Ularning mashhur ifodasi bilan aytganda, "bizda jumboq bo'laklari bor, ammo ularni qanday birlashtirishni ko'rsatuvchi tasvir yo'q".[2]

Klark Makkoli va Sofiya Moskalenko radikalashuvning shaxs, guruh va omma darajasida turli yo'llar bilan yuz berishini ko'rsatadi. Shaxsiy qurbonlik, yaqin insonning o'limi, guruh ichidagi raqobat, davlatning keskin javobi yoki dushman guruhga nisbatan nafrat turli mexanizmlarni ishga tushirishi mumkin. Demak, barcha yoshlar uchun bir xil profil tuzish ilmiy va axloqiy jihatdan xavflidir. Profilga asoslangan shubha ayrim guruhlarini tamg'alashi, ijtimoiy ishonchni pasaytirishi va aksincha, begonalashuvni kuchaytirishi mumkin.[3]

Fathali Mo'g'addam "terrorizmga olib boruvchi zinapoya" modeli ham muhim. Modelga ko'ra, ko'pchilik insonlar mavjud ijtimoiy sharoit ichida yashaydi. Faqat ayrimlari imkoniyatlar yopiq, adolat yo'q va ovozi eshitilmayapti degan xulosaga keladi. Keyingi bosqichlarda aybni tashqi guruhga yuklash, axloqiy cheklovlarining zaiflashuvi va zo'ravon tashkilotga qo'shilish ehtimoli ortadi. Bu model yoshlarni himoya qilishda adolat hissi, qonuniy murojaat yo'llari va ijtimoiy harakatchanlik imkoniyatlari nega muhimligini tushuntiradi.[4] Ijtimoiy falsafada radikallashuvni qadriyatlar ierarxiyasining buzilishi sifatida ham ko'rish mumkin. Oddiy sharoitda inson hayoti, sha'ni, erkinligi, adolat, tinchlik va hamjihatlik oliy qadriyatlar bo'lib xizmat qiladi. Radikal mafkura esa bitta maqsadni mutlaqlashtiradi. Millat, din, sinf, irq, siyosiy g'oya yoki guruh manfaatini inson hayotidan yuqori qo'yadi. Natijada boshqa odam vosita yoki dushman sifatida ko'riladi. Zo'ravonlik esa "oliy maqsad" uchun oqlanadi.

O'zbekistonlik olim S. G'afurov radikallashuvni ma'naviy meyorlardan chekinish va voqelikni noto'g'ri talqin qilish bilan bog'laydi. Uning "Muammoni to'g'ri anglash - u haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishdir" degan fikri raqamli davr uchun ayniqsa muhim. Chunki yolg'on yoki bir tomonlama xabar shaxsning muammoni baholash mezonini o'zgartiradi. Noto'g'ri tashxis esa noto'g'ri harakatga olib keladi.[5]

Manuel Kastels tarmoq jamiyatida hokimiyat kommunikatsiya tarmoqlarini shakllantirish va ularning yo'nalishini boshqarish orqali amalga oshirishini ko'rsatadi. Raqamli davrda kim ko'proq gapirishi emas, kimning xabari ko'proq ko'rinishi muhim bo'lib qoldi. Platforma arxitekturasini, tavsiya algoritmi, trendlar, reytinglar va reklama mexanizmlari jamoatchilik e'tiborini taqsimlaydi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqni neytral texnik vosita deb bo'lmaydi. U ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy manfaatlar va madaniy ramzlar to'qnashadigan makondir.[6] Yurgen Habermas esa ijtimoiy tarmoqlarni fuqarolar umumiy masalalarni dalil va muloqot asosida muhokama qiladigan makon sifatida tasvirlagan. Ijtimoiy tarmoqlar bunday maydonni kengaytirdi. Yoshlar avval ovozi eshitilmagan masalalarni ko'tarishi, davlat organlariga murojaat qilishi, xayriya yoki ekologik tashabbuslarni tashkil etishi mumkin. Biroq raqamli jamoat maydoni tijorat algoritmlari, hissiy kontent va botlar ta'sirida parchalanishi ham mumkin. Bunda muloqot fikr almashishdan ko'ra e'tibor uchun kurashga aylanadi[7].

Muhokama va natijalar. Rossiyalik professor Galina Soldatova raqamli ijtimoiylashuvni yoshlarning rivojlanishidagi yangi ijtimoiy vaziyat deb baholaydi. Uning yondashuvida internet tashqi vosita emas, balki kundalik hayot, o'zlik va munosabatlar bilan qo'shilib ketgan muhitdir. Demak, yoshlarni internetdan butunlay ajratish himoya strategiyasi bo'la olmaydi. To'g'ri yo'l - raqamli muhitda mustaqil fikrlash, xavfni anglash va mas'uliyatli ishtirok etish qobiliyatini shakllantirishdir.[8]

Himoya strategiyasi yoshni faqat nazorat qilish emas, unga sog'lom va qadrli mansublik berishni ham nazarda tutishi kerak. Shu sababli media savodxonlik faqat yolg'on xabarni aniqlash emas. U tilning axloqiy ta'sirini anglashni ham o'z ichiga oladi. Yoshlar tarmoqlarda tarqatilyotgan manbalarni faqat to'g'ri yoki noto'g'riligini emas, u kimni insoniy maqomdan chiqarayotganini, qanday hissiyot uyg'otayotganini va qanday harakatga undayotganini ham tahlil qila olishi kerak. Bu borada AQSH Milliy adliya instituti tahlilida muhim fikr bor: "Onlayn xatti-harakatlar va muloqot bo'shliq ichida yuz bermaydi". Internetdagi ta'sir shaxsning oilasi, do'stlari, ruhiy holati, ijtimoiy imkoniyatlari va real hayotdagi tajribasi bilan birga tahlil qilinishi kerak.[9]

Yevropa tadqiqotlarida raqamli va real makonning integratsiyasi, ijtimoiy qutblanish, ekstremistik ekotizimlar hamda huquq va xavfsizlik muvozanati ko'proq tahlil qilinadi. Yevropa Radikallashuvdan xabardorlik tarmog'i sharhlarida internetning radikallashuvdagi roli tarixiy rivojlanish, turli platformalar va foydalanuvchi xulqi bilan bog'liq holda ko'riladi. Ularning xulosasi ham bir xil: internet muhim omil, lekin u yolg'iz va mustaqil sabab emas.[10]

Rossiya ilmiy maktabida "raqamli ijtimoiylashuv", "kiberijtimoiylashuv" va yoshning o'zgarayotgan rivojlanish muhiti tushunchalari muhim o'rin tutadi. Anastasiya Tixonova ijtimoiy media, "klipli tafakkur", onlayn chatlar va radikallashuv xavfi o'rtasidagi aloqalarni tahlil qiladi. Bu yondashuv yoshning axborotni tez, bo'laklangan va hissiy shaklda qabul qilishiga e'tibor qaratadi.[11]

Arab ilmiy maktabining vakili Omar Ashour esa qarshi narrativning uch jihatini ajratadi: xabarning mazmuni, xabarni yetkazuvchi shaxs va media strategiyasi. Unga ko'ra, radikal narrativga faqat rasmiy inkor bilan javob berish samarasiz. Xabar mafkuraning diniy, siyosiy, tarixiy, amaliy va ijtimoiy-psixologik qatlamlarini izchil tahlil qilishi kerak. Uni auditoriya ishonadigan shaxs yetkazishi va mos platformada tarqatishi lozim.[12]

Turkiyalik tadqiqotchi Emre Chitak onlayn radikallashuvga qarshi kurashda internetning o'zidan foydalanish zarurligini asoslaydi. Uning fikricha, onlayn radikallashuv dinamik va murakkab bo'lgani sababli an'anaviy yuzma-yuz profilaktika bilan cheklanib bo'lmaydi. Raqamli platformalarda muqobil kontent, erta ogohlantirish, ishonchli muloqot va deradikalizatsiya vositalari birgalikda ishlashi kerak.[13]

Muhammad Akram va Asim Nasarning 82 ta ilmiy tadqiqotni qamrab olgan tizimli sharhi faol ravishda radikal material qidiradigan foydalanuvchilar bilan tasodifan kontentga duch keladigan foydalanuvchilarni farqlash muhimligini ko'rsatadi. Bu farq profilaktika choralarini individual xavf darajasiga moslashtirish kerakligini anglatadi.[14]

O'zbekiston yondashuvida profilaktika, ma'rifat, bag'rikenglik, yoshlar bilan ishlash, fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalarini jalb etish bir tizim sifatida ko'riladi. 2021-2026-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiyada voyaga yetmaganlar va yoshlar orasida ekstremistik g'oyalar tarqalishining oldini olish, Internetdan ekstremistik maqsadlarda foydalanishga qarshi kurashish

hamda OAV va fuqarolik jamiyati institutlarini keng jalb etish ustuvor yo'nalish etib belgilangan.[15]

Xulosa. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarni radikalizmdan himoya qilishda faqat xavf manbai yoki faqat foydali vosita emas. Ularning roli foydalanish usuli, platforma arxitekturasini, yoshning ijtimoiy holati, oilaviy muhit, ta'lim, identitet va jamiyatdagi ishonch darajasiga bog'liq. Internet mavjud ranjish va bo'shliqlarni tezlashtiradi, guruhga ulaydi va mafkuraviy talqin bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, u ma'rifat, yordam, muloqot, muqobil narrativ va ijobiy jamoa yaratish uchun katta imkoniyat beradi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil radikallashuvning markazida ma'no, qadriyat, mansublik va adolat masalalari turishini ko'rsatdi. Shuning uchun himoya siyosati faqat kontentni o'chirish, bloklash va jazolashga tayanmasligi kerak. Bunday choralari aniq xavf mavjud bo'lganda zarur, lekin ular sabablarni bartaraf etmaydi. Yoshni radikal g'oyadan

uzoqlashtirish uchun unga ishonchli bilim, sog'lom identitet, hurmatli muloqot, qonuniy faollik va ijtimoiy istiqbol berish kerak.

Taklif etilgan "MA'NO" modeli media savodxonlik, adolat va ijtimoiy ishonch, konstruktiv narrativlar hamda onlayn-offlayn hamkorlikni yagona tizimga birlashtiradi. Modelning asosiy g'oyasi oddiy: yoshlar ma'nosiz bo'shliqda qolmasligi kerak. Jamiyat unga haqiqatni tekshirish vositasini, o'zini qadrli his qiladigan jamoani, muammoni qonuniy hal qilish yo'lini va kelajak haqidagi ishonchli tasavvurni bera olsa, destruktiv guruhlarining ta'siri kamayadi.

Demak, ijtimoiy tarmoqdagi kurash aslida e'tibor uchun emas, insonning ongida voqelikni talqin qilish huquqi uchun kurashdir. Bu kurashda eng kuchli vosita qo'rquv emas, ishonch; sukut emas, muloqot; quruq inkor emas, dalil; taqiqlarning o'zi emas, ma'noli muqobildir.

ADABIYOTLAR

1. Alava, S., Frau-Meigs, D., & Hassan, G. (2017). Youth and violent extremism on social media: Mapping the research. UNESCO.
2. Hafez, M., & Mullins, C. (2015). The radicalization puzzle: A theoretical synthesis of empirical approaches to homegrown extremism. *Studies in Conflict & Terrorism*, 38(11), 958–975. <https://doi.org/10.1080/1057610X.2015.1051375>
3. McCauley, C., & Moskalenko, S. (2008). Mechanisms of political radicalization: Pathways toward terrorism. *Terrorism and Political Violence*, 20(3), 415–433. <https://doi.org/10.1080/09546550802073367>
4. Moghaddam, F. M. (2005). The staircase to terrorism: A psychological exploration. *American Psychologist*, 60(2), 161–169. <https://doi.org/10.1037/0003-066X.60.2.161>
5. G'afurov, S. (2024). Radikalizm – psixologik terror fenomeni. Ma'naviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar to'plamida b - 26–31
6. Castells, M. (2009). Communication power. p - 19-33
7. Habermas, J. (1989). The structural transformation of the public sphere. p – 24-28
8. Soldatova, G. U. (2018). Цифровая социализация в культурно-исторической парадигме: изменяющийся ребенок в изменяющемся мире. *Социальная психология и общество*, 9(3), с-71–80. <https://doi.org/10.17759/sps.2018090308>
9. Aryaeinejad, K. (2024). The role of the internet and social media on radicalization. p – 47-49
10. Whittaker, J. (2022). Online radicalisation. Radicalisation Awareness Network, European Commission.
11. Tikhonova, A. D. (2018). Social media and youth: The risk of radicalization. *Psychology and Law*, 8(4), 55–64. <https://doi.org/10.17759/psylaw.2018080406>
12. Ashour, O. (2010). Online de-radicalization? Countering violent extremist narratives: Message, messenger and media strategy. *Perspectives on Terrorism*, 4(6).
13. Çıtak, E. (2024). Çevrimiçi radikalleşmeye karşı çevrimiçi mücadele: İnternetin radikalleşmeyle mücadelede kullanılması. *TESAM Akademi Dergisi*, 11(2), 485–514. <https://doi.org/10.30626/tesamakademi.1409425>
14. Akram, M., & Nasar, A. (2023). Systematic review of radicalization through social media. *Ege Academic Review*, 23(2), p- 279–296.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2021). 2021–2026-yillarga mo'ljallangan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-6255-son Farmon). <https://www.lex.uz/ru/docs/-5491626>